

“KATTABOG’” MAHALLASIDA SAYYOR QABUL O’TKAZILDI



“KATTABOG’” MAHALLASIDA SAYYOR QABUL O’TKAZILDI

Bugun, 13-avgust kuni Termiz shahar birinchi va to’rtinchi sektor ma’sul va Rahbarlari birgalikda fuqarolar uchun navbatdagi sayyor qabul o’tkazdi. Unda shahardagi mutasaddi korxonalar va tashkilot rahbarlari ishtirok etdi. O’tkazilgan qabulda 25 nafar fuqarolar tomonidan 30 ta murojaatlar kelib tushgan bo’lib, shundan subsidiya tartibida uyjoy olish, imtiyozli kredit olish, moddiy yordam olish, tibbiy yordam va boshqa masalalardagi fikrlari tinglandi. Shahsiy va huquqiy masalalarda ham murojaat qilgan fuqarolarga o’z o’rnida huquqiy tushuntirishlar berildi. Fuqarolar tomonidan qilingan murojaatlarning ayrimlari jumladan: 2 ta moddiy yordam va 3 ta sog’ligini tiklashda tibbiy yordam masalasida hamda 2 ta "Temir daftar"da ro’yhatda turuvchilarga moddiy yordam ajratish masalasi joyida ijobiy yechimini topdi. Qabul davomida yechimi vaqt talab etadigan masalalar bo’yicha mas’ullarga ko’rsatma va topshiriqlar berilib, ijrosi qat’iy nazoratga olindi.